



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th July 2025

KORPORATIV NIZOLAR BO‘YICHA SUDGA MUROJAAT QILISH TARTIBI VA DA‘VONI TA‘MINLASH CHORALARINING HUQUQIY AHAMIYATI

Suyunov Javohirbek Ilxom o‘g‘li,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Biznes huquqi mutaxassisligi magistranti
E-mail: javohirs981@gmail.com
Tel: (94) 437-55-99

Annotatsiya:

Ushbu mavzu O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida korporativ nizolarni hal qilish uchun sudga murojaat qilishni va da‘voni ta‘minlash choralarining qo‘llanilishini ilmiy jihatdan tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda da‘vo arizasini tayyorlash, da‘voni ta‘minlash choralarini da‘vo arizasining o‘zida keltirib o‘tish, sudga murojaat qilish muddatlari, talab qilinadigan hujjatlar va sud jarayonining asosiy bosqichlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Korporativ nizolar, da‘vo arizasi, da‘voni ta‘minlash choralari, sudga murojaat qilish muddatlari, hujjatlarni tayyorlash va ilova qilish, da‘vo talablarining mutanosibliigi, sud qarorlarini ijro etish.

Abstract:

This study is dedicated to a scientific analysis of the procedure for applying to courts to resolve corporate disputes and the application of interim measures to secure claims within the legal framework of the Republic of Uzbekistan. The research examines the preparation of a claim application, the inclusion of interim measures within the claim application itself, the deadlines for filing claims with the court, the required documentation, and the key stages of the judicial process.

Keywords: Corporate disputes, claim application, interim measures, deadlines for court applications, preparation and submission of documents, proportionality of claim requirements, enforcement of court decisions.



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th July 2025

Korporativ nizolar zamonaviy iqtisodiy munosabatlarning muhim tarkibiy qismi sifatida xo‘jalik yurituvchi subyektlar, aksiyadorlar va boshqaruv organlari o‘rtasidagi huquqiy kelishmovchiliklarni bartaraf etishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida korporativ nizolarni hal qilish uchun sudga murojaat qilish jarayoni va da‘voni ta‘minlash choralarining qo‘llanilishi ushbu nizolarni samarali va adolatli hal etishda asosiy mexanizmlardan biridir. Da‘voni ta‘minlash choralari, xususan, mol-mulkiy huquqlarni himoya qilish, sud qarorlarining ijrosini kafolatlash va da‘vo talablarining mutanosibligini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasiga muvofiq, har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi¹.

Korporativ huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar iqtisodiy sudga ko‘rib chiqiladi va bu jarayon Iqtisodiy protsessual kodeksda (bundan buyon matnda IPK deb yuritiladi) belgilangan tartibda amalga oshiriladi. IPKning 3-moddasiga ko‘ra, har qanday manfaatdor shaxs o‘z huquqlari yoki qonun bilan himoya qilinadigan manfaatlarini himoya qilish uchun iqtisodiy sudga belgilangan tartibda murojaat qilish huquqiga ega. Sudga murojaat qilish huquqidan voz kechish haqiqiy hisoblanmaydi².

Korporativ nizolar bo‘yicha ishlarni o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda amaldagi qonun hujjatlariga (IPK, “Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqalar) bunday nizolarning alohida toifadagi ishlar sirasiga kirishini, ammo bu ishlarning tabiatidan kelib chiqqan holda korporativ nizolar bo‘yicha huquqni tiklash to‘g‘risida sudga “ariza” yoki “shikoyat” bilan emas “da‘vo arizasi” (da‘vo tartibida) bilan murojaat qilinishini nazarda tutuvchi tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalarni kiritish lozim. Murojaat da‘vo arizasi shaklida berilganda taraflar – “da‘vogar” va “javobgar” deb ataladi. IPKning 43-moddasiga ko‘ra, o‘z huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan

¹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 55-moddasi <https://lex.uz/docs/-6445145>

² <https://lex.uz/ru/docs/-3523891>



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th July 2025

manfaatlarini himoya qilish maqsadida da'vo taqdim etgan yoki manfaatlarini ko'zlanib da'vo taqdim etilgan yuridik shaxslar va fuqarolar da'vogarlardir³. Ishtirokchini jamiyatdan chiqarish, dividend undirish kabi da'volar bo'yicha sudga murojaat qilgan ishtirokchi da'vogar maqomiga ega bo'ladi. Ammo muayyan toifadagi korporativ nizolar mavjudki, ular bo'yicha da'vo arizasi ishtirokchi tomonidan imzolansada, da'vo arizasi yuridik shaxsning manfaatida beriladi

Sudga murojaat qilish:

- ✓ fuqarolik huquqiy munosabatlaridan yuzaga keladigan nizolar bo'yicha — **da'vo arizasi** shaklida;
- ✓ buyruq tartibida ish yuritish, alohida toifadagi ishlar bo'yicha hamda ushbu Kodeksda nazarda tutilgan boshqa hollarda — **ariza** shaklida;
- ✓ apellyatsiya yoki kassatsiya, tegishli taftish instansiyasi sudlariga murojaat etilganda, shuningdek ushbu Kodeks hamda boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollarda **shikoyat (protest)** shaklida amalga oshiriladi.

Korporativ nizolar bo'yicha ishlar IPK da nazarda tutilgan **da'vo ishini yuritishning umumiy qoidalari** bo'yicha sud tomonidan ko'rib chiqiladi³. Ushbu nizo turi bo'yicha da'vo arizasiga keladigan bo'lsak, **IPK ning 149-moddasida** nazarda tutilgan talablarga rioya qilish lozim bo'ladi. Ya'niki da'vo arizasi sudga yozma shaklda beriladi. U da'vogar yoki uning vakili tomonidan imzolaniadi.

Da'vo arizasida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- 1) ariza berilayotgan sudning nomi;
- 2) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning nomi (famiyasi, ismi va otasining ismi), joylashgan yeri (pochta manzili) yoki yashash joyi;
- 3) agar da'vo baholanishi lozim bo'lsa, da'voning bahosi;
- 4) da'vo talablariga asos bo'lgan holatlar;
- 5) da'vo talablarining asoslarini tasdiqlovchi dalillar;
- 6) undirilayotgan yoki nizolashilayotgan summaning hisob-kitobi;
- 7) da'vogarning qonunchilikka asoslab keltirgan talablari, da'vo bir nechta javobgarga nisbatan taqdim etilganda esa ularning har biriga nisbatan talablar;

³ O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksining 212-moddasi <https://lex.uz/ru/docs/-3523891#-3532019>



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th July 2025

8) javobgar bilan nizoni sudgacha hal qilish (talabnoma yuborish) tartibiga rioya etilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar, agar bu shu toifadagi nizolar uchun qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa;

9) ilova qilinayotgan hujjatlarning ro'yxati.

Shuningdek, korporativ nizo bo'yicha da'vo arizasiga ushbu Kodeksning **151-moddasida** nazarda tutilgan hujjatlar, shuningdek **yuridik shaxsning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini tasdiqlovchi va uning joylashgan yeri (pochta manzili)** to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan hujjat ilova qilinadi (IPK 213-moddasi). Mazkur talablarga rioya qilinmagan holda ish yuritishga qabul qilingan da'vo arizasi (ariza) protsessual qonunbuzilishi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining "Iqtisodiy sudlar tomonidan korporativ nizolarni hal etishning ayrim masalalari to'g'risida" 2014-yil 20-iyundagi 262-sonli qarorning 17-bandida yozilishicha, aksiyadorlik jamiyatining boshqaruv organlarining (umumiy yig'ilish, kuzatuv kengashi, ijroiya organi) qarorlarini to'liq yoki qisman haqiqiy emas deb topish haqidagi da'volar bo'yicha javobgar bo'lib **ushbu boshqaruv organlari emas, balki jamiyatning o'zi** hisoblanadi⁴. Da'vo arizasida javobgar sifatida muayyan boshqaruv organi ko'rsatilganligi, da'vo arizasini qabul qilishni rad etish yoxud IPKning 45-moddasida belgilangan tartibga rioya qilgan holda javobgarni almashtirish uchun asos bo'ladi.

Mas'uliyati cheklangan yoki qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatning boshqaruv organlari qarorlarini haqiqiy emas deb topish to'g'risida berilgan da'vo arizalarini ish yuritishga qabul qilish masalasi ham xuddi shu tartibda hal etiladi.

Ana endi korporativ nizolarni hal qilish bo'yicha da'voni ta'minlash choralari qo'llashga to'xtaladigan bo'lsak, da'voni ta'minlash to'g'risidagi ariza sudga **da'vo arizasi bilan bir vaqtda yoki ishni yuritish jarayonida** berilishi mumkin. Shuningdek, da'voni ta'minlash to'g'risidagi ariza IPK ning 149-moddasida nazarda tutilgan tartibga muvofiq bo'lishi kerak. Da'voni ta'minlash to'g'risidagi ariza da'vogari yoki uning vakili tomonidan imzolandi. Vakil tomonidan imzolangan

⁴ <https://lex.uz/ru/docs/-2453499>



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th July 2025

arizaga ishonchnoma yoki uning arizani imzolashga bo'lgan vakolatini tasdiqlovchi boshqa hujjat ilova qilinadi⁵.

Da'vo arizasi bilan birga taqdim etilgan da'voni ta'minlash to'g'risidagi ariza, da'vo arizasini **ish yuritishga qabul qilish va ish qo'zg'atish masalasi bilan bir vaqtda**, ishda ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilmasdan sud tomonidan ko'rib chiqiladi. Agar da'voni ta'minlash to'g'risidagi ariza sud majlisida berilsa, **u o'sha majlisda** ko'rib chiqilishi kerak. Ish yuritish jarayonida taqdim etilgan da'voni ta'minlash arizasi esa, **kelib tushgandan keying kundan kechiktirmasdan**, ishtirokchilarni xabardor qilmasdan ko'rib chiqiladi⁶. Arizani ko'rib chiqish natijasida ajrim chiqariladi va uning nusxasi ishda ishtirok etuvchi shaxslarga yuboriladi.

Korporativ nizolar bo'yicha sudga murojaat qilishda xorijiy tajribaga yuzlanadigan bo'lsak, Rossiya Federatsiyasi Arbitraj protsessual kodeksida ham **“Korporativ nizolarga oid ishlarni ko'rish”** deb nomlangan arbitraj sudidagi alohida toifadagi ishlarni ishlarni ko'rish xususiyatlari to'g'risidagi IV bo'limida belgilangan⁷. **Ukraina Xo'jalik protsessual Kodeksining 139-moddasi** bevosita da'voni ta'minlash to'g'risidagi arizaning mazmuni va shakli oid talablarni o'zida belgilagan. Farqli jihatlariga e'tibor beradigan bo'lsak, ariza beruvchi ta'minlashni so'rayotgan da'vo qiymati va arizachining qarshi ta'minot bo'yicha iltimosnomasi ham mavjud bo'lishligi ta'kidlangan. Shuningdek, da'voni ta'minlash to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish tartibi to'g'risidagi 140-moddasini tahlil qiladigan bo'lsak, da'voni ta'minlash to'g'risidagi ariza sudga kelib tushgan kundan boshlab kechiktirmasdan **ikki kun** ichida, ishda ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilmasdan ko'rib chiqilishi belgilangan⁸. **Qozog'iston Iqtisodiy protsessual Kodeksida** esa ushbu muddat bir kunni tashkil etadi⁹. Bizning IPK da esa bunday muddat masalasi mavhumligicha qolgan ya'ni da'vo arizasi bilan birga taqdim etilgan da'voni ta'minlash to'g'risidagi ariza, da'vo arizasini **ish yuritishga qabul qilish va ish qo'zg'atish masalasi bilan bir vaqtda**, ishda ishtirok etuvchi

⁵ O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi 95-moddasi <https://lex.uz/ru/docs/-3523891#-3532067>

⁶ Korporativ nizolarni sudga ko'rishga oid ayrim masalalar / amaliy qo'llanma / S.Xolbayev, M.Saidov. – Toshkent; 2023. – 91 b;

⁷ https://nrm.uz/contentf?doc=244392_arbitrajnyy_processualnyy_kodeks_rossiyskoy_federacii&products=1_vse_z_akonodatelstvo_uzbekistana;

⁸ https://continent-online.com/Document/?doc_id=30418667#pos=1761;-24;

⁹ https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=30415078&doc_id2=30415078#pos=5;-98&pos2=415;-98



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th July 2025

shaxslarni xabardor qilmasdan sud tomonidan ko‘rib chiqiladi deyilgan. Afsuski, bunda muddat emas, protsessual ketma-ketlik nazarda tutilgan.

Fuqarolik-protsessual Kodeksning 107-moddasida da‘voni ta‘minlash to‘g‘risidagi ariza sudya (sud) tomonidan **ariza tushgan kuniyoq** javobgarni va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarni xabardor qilmagan holda hal qilinadi deb belgilangan. Yevropa davlatlarida, masalan, **Fransiyada**, da‘voni ta‘minlash choralari “mesures conservatoires” deb ataladi va fuqarolik protsessual qonunchilikka asoslanadi. Da‘voni ta‘minlash choralari ko‘pincha davlat yoki jamoat manfaatlarini himoya qilish uchun qo‘llaniladi. Prokurorlar faqat ommaviy manfaatlar yoki boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qilish maqsadida da‘vo arizasi bilan chiqishlari mumkin. **Italiyada** ham shunga o‘xshash tartib qo‘llaniladi.

IPKning 44-moddasiga ko‘ra, korporativ nizolar bo‘yicha ham da‘vo bir necha da‘vogar (sherik da‘vogarlar) tomonidan birgalikda yoki bir necha javobgarga (sherik javobgarlarga) nisbatan taqdim etilishi mumkin. Bunda da‘vo arizasida taraflarning har qaysisining nomi (famiyasi, ismi va otasining ismi), joylashgan yeri (pochta manzili) yoki yashash joyi alohida ko‘rsatilishi, bir necha da‘vogar tomonidan berilgan da‘vo arizalari har bir da‘vogar tomonidan imzolanishi lozim. Da‘vo arizasining sherik da‘vogarlarning biri tomonidan imzolanmasdan sudga taqdim etish holatining huquqiy oqibatlari bo‘yicha har xil yondashuvlar mavjud. Fikrimizcha, sheriklardan biri tomonidan imzolanmagan da‘vo arizasi **IPK 155-moddasi birinchi qismining 1-bandiga** muvofiq qaytarilishi lozim.

Bir nechta ishtirokchi sudga murojaat qilganda da‘vo arizasi ushbu ishtirokchilarning barchasi yoki ularning vakili (vakillari) tomonidan imzolangan bo‘lishi kerak. Sud sheriklardan biri tomonidan imzolanmagan da‘vo arizasi bo‘yicha hal qiluv qarori qabul qilarkan, imzolamagan da‘vogarning **da‘vosini ko‘rmasdan qoldirib**, da‘vo arizasini imzolagan da‘vogarning da‘vosini dalillarning maqbulligi va daxldorligi nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqadi. Amaliyotda tushunmovchilik keltirib chiqarayotgan yana bir muhim masala shuki, **IPKning 148-moddasida** manfaatdor shaxslardan tashqari, prokurorning arizasi bo‘yicha, shuningdek, davlat organlari va boshqa shaxslar yuridik shaxslar va fuqarolarning huquqlari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish maqsadida qonun bo‘yicha sudga murojaat qilish



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th July 2025

huquqiga ega bo'lgan hollarda, shu davlat organlarining va boshqa shaxslarning arizalari bo'yicha ish qo'zg'atilishi belgilangan. Mazkur norma korporativ nizolarga oid sudlarga qilinadigan murojaatlarga nisbatan ham tatbiq etiladimi yoki yo'qmi, degan savolga sudyalar turlicha fikr bildirishadi. Fikrimizcha, mumkin. Chunki, qonunda bu kabi da'volarning taqdim etilishiga hech qanday taqiq mavjud emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

✚ Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. URL:<https://lex.uz/uz/docs/-6445145;>
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi;
3. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi;
4. "Iqtisodiy sudlar tomonidan korporativ nizolarni hal etishning ayrim masalalari to'g'risida" gi 262-sonli Oliy Sud Plenum qarori;

✚ Darslik, o'quv qo'llanma va maqolalar:

1. Korporativ nizolarni sudda ko'rishga oid ayrim masalalar / amaliy qo'llanma / S.Xolbayev, M.Saidov. – Toshkent:, 2023. – 91 b;
2. Iqtisodiy protsessual huquq. Darslik / Mas'ul muharrir y.f.d Z.N. Esanova. – Toshkent: TDYU, 2020. – 215 bet;
3. Iqtisodiy protsessual huquq [Matn]: o'quv qo'llanma / R.T. Berdiyarov, D.Y. Xabibullayev – T.: TDYU nashriyoti, 2024. – 149-bet.

✚ Foydalanilgan saytlar:

1. <https://lex.uz/ru/docs/-2453499> ;
2. [https://continentonline.com/Document/?doc_id=30418667#pos=176124;](https://continentonline.com/Document/?doc_id=30418667#pos=176124)
3. [https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=30415078&doc_id2=30415078#pos=5;-98&pos2=415;-98;](https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=30415078&doc_id2=30415078#pos=5;-98&pos2=415;-98)
4. https://nrm.uz/contentf?doc=244392_arbitrajnyy_processualnyy_kodeks;_ros_siyskoy_federacii&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana;